

## O'ZBEKISTONDA VENCHUR KAPITALINING ROLI VA UNING STARTAPLARGA TA`SIRI

*Ergashov Sherzod Abduxoliq o`g`li*

*“UNIVERSITY OF MANAGEMENT AND*

*FUTURE TECHNOLOGIES” UNIVERSITY Magistrant*

*TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI talabasi*

*Ergashov G`ayrat Abduxoliq o`g`li*

### **Annotation**

Ushbu maqolada O'zbekistondagi vechur kapitali va startaplar sohasidagi rivojlanishga doir ko'satmalar, qonunlar va qarorlarni tahlil qiladi.Unga qo'shimcha, vechur kapitalining moliyaviy yordamlashuvda o'ynagan roli haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so`zlar:** vechur kapitali, innovatsiya va startaplar, investitsiya, investor.

### **Аннотация**

В данной статье анализируются руководящие принципы, законы и решения, связанные с развитием венчурного капитала и стартапов в Узбекистане. Кроме того, представлена информация о роли венчурного капитала в финансовой помощи.

**Ключевые слова:** венчурный капитал, инновации и стартапы, инвестиции, инвестор.

### **Abstract**

This article analyzes the guidelines, laws and decisions related to the development of venture capital and startups in Uzbekistan. In addition, information is provided on the role of venture capital in financial assistance.

**Key words:** venture capital, innovation and startups, investment, investor.

### **Kirish**

Vechur kapitali va startaplar bugungi kunda innovatsiyalar va biznes jarayonlarini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan mavzular hisoblanadi. O'zbekiston esa o'zining yangi siyosiy va iqtisodiy qo'llanmalari bilan bu sohada katta ishlar olib bormoqda. Bu maqolada o'zbekistondagi vechur kapitalining o'rni va mohiyati, startaplarga ta'siri va vechur kapitaliga oid ishlab chiqilgan qarorlar va qonunlar haqida gaplashamiz.Vechur kapitali, innovatsiyalarga asoslangan startaplarga moliyaviy va professional yordam berishni maqsad qiladigan investitsion tizim hisoblanadi. Bu tizimda moliyaviy resurslarni startaplarga ta'minlash orqali, yangi ideyalar va texnologiyalar asosida biznesni rivojlantirishga imkoniyat yaratiladi. Vechur kapitali investorlari, potentsialli startaplarga moliyaviy mablag'lar invest

qilish orqali ularga yordam beradi va ularning yanada o'sishini, rivojlanishini kuzatib boradi.O'zbekistonda vechur kapitali sohasidagi islohotlar va qo'llanmalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining qarorlaridan iborat bo'lib, bu sohada rivojlanayotgan startaplarga muhim imtiyozlar berilmoqda. 2019 yil 8 maydag'i "O'zbekiston Respublikasida vechur kapitali faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qonun bilan vechur kapitali sohasida islohotlar amalga oshirildi. Bu qonun bilan vechur kapitali investorlari uchun vauchir imtiyozlari, moliyaviy va buxgalterlik hisob-kitoblarni tuzishda qulayliklar ta'minlandi.Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Hukumatining yana bir nechta qarorlari va qonunlari qabul qilindi. Ulardan biri 2020 yil 10 iyuldag'i "Elektronika va innovatsion texnologiyalar sohasida startaplarni rivojlantirish to'g'risida"gi qonun bo'lib, bu qonun orqali startaplarga sifatli imtiyozlar, moliyaviy yordam va litsenziyalarni berish muammolariga yetarli tizim yaratildi.O'zbekistondagi vechur kapitali va startaplar sohasidagi bu islohotlar va qonunlar, innovatsiyalar va biznes rivojlanishini yanada kuchaytirishga yordam beradi. Vechur kapitali investorlari va startaplar orasidagi hamkorliklar, yangi ideyalarni amalga oshirish imkoniyatini ochib beradi va O'zbekistonning innovatsion potensialini oshiradi. Innovatsion biznes yuritishning "korporativ vechur" deb nomlanuvchi modeli keng tarqalgan. Uning doirasida korxonalar innovatsion rivojlanishga oid muammolarini mustaqil ravishda hal etadilar, bunda resurslarni innovatsion loyihani amalga oshirishga yo'naltiruvchi yirik bosh kompaniya asosiy investor bo'lib qoladi. Innovatsion loyiha bosh kompaniya tarafidan tashkil etilmagan taqdirda, moliyalashtirish odatda korporativ jihatdan tobe bo'lgan vechur fond orqali amalga oshiriladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, vechur kapitali va startaplar o'zbekistonda biznes va innovatsiyalar sohasidagi rivojlanishga muhim hissa qo'shamoqda. Qonunlar va qarorlar orqali vechur kapitali investorlari va startaplar o'rtaida yaxshi hamkorliklar yaratiladi. Ushbu siyosiy va iqtisodiy islohotlar o'zbekistondagi innovatsiyalar va biznes potensialini oshiradi va yangi imkoniyatlarni ochadi.Umid qilamizki, vechur kapitali va startaplar sohasidagi rivojlanish O'zbekistonning innovatsion kuchini yanada oshirib, yangi biznes muhitini yaratadi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi. Vechur kapitali innovatsion rivojlanishi, iqtisodiyotning tuzilmaviy transformatsiyasi omili sifatida namoyon bo'ladi. U "fanishlab chiqarish-bozor" zanjirining barcha bo'g'lnlari o'zaro ta'sirini ta'minlash orqali umuman iqtisodiyotning faoliyati samaradorligini oshiruvchi innovatsion faoliyatning o'ziga xos investitsion mexanizmini yaratishga yordam beradi. Vechur kapitali – bu iqtisodiyotning innovatsion yangilanishini harakatga keltiruvchi kuch, uning o'sishini tezlatuvchi omil.

### **Foydalaniman adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T:2018.
2. <https://www.uzvca.uz> – Ўзбекистон венчур инвестициялаш ассоциацияси сайти.
3. С.Чўллиев. Венчур капитали. [Матн]: Монография / – Тошкент: «Yosh avlod matbaa», 2022.
4. <https://lex.uz> – Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари миллий базаси.